

TASVIRIY SAN'ATDA ILG'OR PEDAGOGIK TAJRIBALARNI OMMALASHTIRISH METODIKASI

Azimova Muxayye Barotovna,
Buxoro davlat universiteti Tasviriy va amaliy san'at kafedrasi dotsenti

Ramazonova Guzal Muxammadovna,
Buxoro davlat universiteti Tasviriy va amaliy san'at kafedrasi magistri

Annotatsiya. Hozirgi vaqtida ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish haqida turli – tuman fikr, qarash, yondashuvlar mavjud. Bu ham tasodify emas albatta. Zamonaviy, ilg'or pedagogik texnologiya asosida o'qitishni yo'lga qo'yish, ta'lim jarayonini o'quvchilar uchun tushunarli va qiziqarli sohalarini yaratish uchun tinimsiz izlanish o'qituvchining muhim vazifasi bo'lib qolmoqda. Ushbu maqolada o'qituvchi mashg'ulotlarni pedagogik texnologiya bo'yicha loyihalashda nimalarga amal qilishi kerakligi haqida hamda ilg'or pedagogik tajribaga uch xil asosiy yondoshuv mavjudligi haqida, so'z boradi.

Kalit so'zlar: texnologiya, o'qituvchi, ta'lim, tajriba, mashg'ulot, loyiha, ko'rsatma, metodlar, ta'lim jarayoni, tarbiya.

МЕТОДОЛОГИЯ ПРОДВИЖЕНИЯ ПЕРЕДОВОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОПЫТА В ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМ ИСКУССТВЕ

Азимова Мухае Баратовна,
Доцент кафедры изобразительного и прикладного искусства Бухарского государственного университета

Рамазонова Гузаль Мухаммадовна,
Магистр факультета изобразительного и прикладного искусства Бухарского государственного университета

Аннотация. В настоящее время существуют разные мнения, взгляды и подходы к обучению на основе передовых педагогических технологий. Это, конечно, не случайно. Важная задача преподавателя – наладить обучение на основе современных, передовых педагогических технологий, создать области образовательного процесса, понятные и интересные учащимся. В данной статье говорится о том, чем должен руководствоваться учитель при проектировании уроков по педагогической технологии, а также о существовании трех основных подходов к передовой педагогической практике.

Ключевые слова: технология, педагог, образование, опыт, обучение, проект, обучение, методы, образовательный процесс, образование.

METHODOLOGY OF PROMOTING ADVANCED PEDAGOGICAL EXPERIENCES IN FINE ARTS

Azimova Mukhaye Barotovna,
Associate Professor of Fine and Applied Arts Department of Bukhara State University

Ramazonova Guzal Mukhammadovna,
Master of Fine and Applied Arts Department of Bukhara State University

Abstract. Currently, there are different opinions, views, and approaches about teaching based on advanced pedagogical technologies. This is certainly not accidental. An important task of the teacher is

to establish teaching on the basis of modern, advanced pedagogical technology, to create areas of the educational process that are understandable and interesting for students. This article talks about what a teacher should follow when designing lessons on pedagogical technology, and about the existence of three main approaches to advanced pedagogical practice.

Key words: technology, teacher, education, experience, training, project, instruction, methods, educational process, education.

Kirish. Dunyoda sodir bo‘layotgan taraqqiyot jarayonlarining asosiy omillaridan biri har bir sohada yuksak kompetensiyaga ega mutaxassislarni tayyorlash bilan bog‘liq. Kompetensiyalarning dastlabki zamini sifatida, avvalo o‘quv kompetensiyalari e’tirof etiladi[1]. O‘zbekiston pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biri - yoshlarning milliy va jahon madaniy qadriyatlari, shu o‘rinda, badiiy tasviriy faoliyatga doir o‘quv kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirib borish orqali ularni kelajak hayotlarida kreativ fikrlay oladigan yuqori darajadagi kompetensiyaga ega kadrlar sifatida tayyorlash bugungi kunda muhim dolzarblik kasb etadigan masalalar sirasiga kiradi.

Jahon miqiyosida tasviriy san’at darslarida o‘quvchilarning tayanch, metapredmetli, badiiy-estetik, umummadaniy kompetensiyalarini shakllantirishning didaktik tizimini ishlab chiqish, interaktiv dasturiy vositalar yordamida tasviriy san’at fanini o‘qitishning metodik asoslarini takomillashtirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.[2] Ayniqsa, san’atga doir fanlarni o‘qitish jarayonida tasviriy savodxonlikni tarbiyalash, dizayn va mediasan’atda chizma-tasviriy modellar, axborot-kommunikativ texnologiyalardan foydalanish, o‘quvchilarda tanqidiy, ijodiy fikrlash, etik qobiliyatlar, shaxsiy hamda ijtimoiy, madaniyatlararo kompetentlikni rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.[3] Shu bilan birga, tasviriy san’at darslarida art-media vosita va texnologiyalarini qo‘llash orqali hayotiy ko‘nikmalarini rivojlantirish, badiiy ta’lim asosida o‘quvchilarda vataparvarlik va fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish ijodiy faoliyatni vitagen ta’limga ustuvorlik berish asosida amalga oshirishni taqozo etadi

Materiallar va metodlar. Zamon bilan hamnafas rivojlanayotgan bugungi yangi O‘zbekistonda ta’lim-tarbiya tizimini, xususan, umumiyo o‘rta ta’lim mifiktablarida o‘qitilayotgan «Tasviriy san’at» o‘quv fanini isloh qilishning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida, birinchi navbatda, o‘quvchilarda sohaga oid o‘quv kompetensiyalarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.[4] Zero, respublikamizda davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta’lim ustuvorligiga xalqimizning boy milliy qadriyatlari, madaniy-tarixiy an’analari va intellektual merosiga alohida e’tibor qaratilayotganligi O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyasi jarayonida kreativ fikrlovchi ijodkor avlodni tarbiyalash muhim omil hisoblanadi. Shu omillar tasviriy san’atning ta’limiy va tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etishini anglatadi.[5]

An’anaviy yondashuvning asosiy xususiyati - tasviriy san’at predmetini o‘qitayotgan o‘qituvchi ma’lum axborotni taqdim qilish mobaynida uni tushuntirib beradi, o‘quvchi esa bu bilimni xotirada saqlaydi. Bunda «bilim» tushunchasi xotirada saqlanadigan o‘quv materiallari bo‘yicha axborot ma’nosida tushuniladi.[6] Masalan, kompozitsiyaning asosiy vazifasi o‘quvchilarda ij odiy badiiy tasavvurni o‘stirish, hayotdagi voqelikni ko‘rib idrok etish, badiiy did va madaniyatni tarkib toptirish, tasviriy faoliyatdan kompozitsiya yaratishga oid kompetensiyalarini egallay bilishi, fandan olgan nazariy va amaliy bilimlardan ijtimoiy hayotda unumli foydalanishni ta’minalashdan iborat. Bu tasviriy san’at darslarida o‘quvchilarda sohaga oid o‘quv kompetensiyalarni shakllantirishda tizimli yondashish lozimligini anglatadi.[7]

O‘zbekiston istiqlolining dastlabki kunlaridanoq o‘z mustaqil taraqqiyot yo‘lining jamiyat hayotining barcha jahbalaridagi amalga oshiriladigan tub o‘zgarishlarning negizi milliy, ma’rifiy an’analalarimizning zaminini yanada mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg‘unlashtirish orqali dunyoning zamonaviy ilg‘or o‘qitish usullari bilan boyitishga asosiy urg‘u berildi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim tizimining moddiy texnika va axborot bazasini mustahkamlash, o‘quv – tarbiya jarayonini yuqori sifatl o‘quv adabiyotlari va ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan ta’minalishini taqozo etadi.

Shu sababli ham pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida ularning kasb mahoratini ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida shakllantirish bugungi kunning muhim talabi sifatida qo‘ymoqda. Ta’limga

texnologik yondashuv pedagogik jarayonga faol ta'sir etuvchi va uning samaradorligi, bir butunligi, muvaffaqqiyatini belgilab beruvchi vositalardandir. Ta'limga texnologik yondashuvning nazariy – metodologik tahlili shuni ko'rsatadiki, jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi pedagogika fani taraqqiyoti darajasiga bo'lgan talablar bilan chambarchas bog'liq.

Ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida, xususan uning eng muhim shakllantiruvchisi bo'lgan umumiyl o'rta ta'lim tizimidagi muhim vazifalardan biri o'quvchi – yoshlarni fanning barcha yo'naliishlarida chuqur va mustahkam bilim olish, ularni kelajakda ta'limning yuqori bosqichlarida o'qishni muvaffaqqiyatli davom ettirib, munosib kadrlar bo'lib yetishishlariga zamin tayyorlashdan iborat. Bu maqsadni muvaffaqqiyatli amalga oshirishda ta'limni uzlusiz takomillashtirib borish, mакtab, akademik litsey, oly ta'lim o'rtaida o'zaro mustahkam aloqani yo'lga qo'yish, ta'lim sohasidagi yangiliklar, ilg'or tajribalarni ommalashtirish, metodik hamkorlikni izchil olib borish zarur.

Muhokama va natijalar. Ilg'or pedagogik texnologiya bo'yicha o'quv mashg'ulotini loyixalashda o'qituvchining tayyorgarligi muhim hisoblanadi. Kuzatish va taxlillardan ma'lum bulishicha, bu faoliyatda ukituvchilar jiddiy kiyinchilikka uchraydi va bu ulardan yukori malaka xamda tajribaga ega bulishni talab kiladi. Chunki bunda aniq ko'rsatmalar tuzish nisbatan ko'proq ijodiy yondashishni talab kiladi. Tajribali ukituvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning o'quv mashg'ulotidagi muhim joylari, kaysi joyini eslab kolish, kaysi joyidan shunchaki xabardor bulishi kerakligi aniqlanadi.

O'quv mashg'ulotining kanday bo'lishi o'qituvchining ijodkorligi va mahoratiga bog'lik. O'quv mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha qilinadigan ishlar asosan ikki qismdan iborat buo'ishi lozim: mashg'ulot loyixasini tayyorlash va uni amalga oshirish. Mashg'ulot loyiҳxasini tayyorlash o'qituvchi tuza olish faoliyatining mahsuli bulib, qator umumiyl xususiyatlarga ega. Loyixa asosida o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning kelajakda birgalikda amalga oshiradigan faoliyati yotadi.

Davlat ta'lim standartlari talablari asosida tahlil etishdan boshlanadi. Taxlil ma'lumot mazmuni elementlari (bilim, kunikma va malakalar, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlar) dasturlarda kanday berilganligi, darsliklarda kanday aks ettirilganligiga karatiladi. Keyin mashg'ulot mavzusi mazmuni urganiladi, u yoki bu mavzuni urganishdan kuzda tutilgan maksad, ta'limning didaktik maksadi, ukituvchi va ta'lim oluvchilar maksadi, maksadlarni amalga oshirish va xisobga olish varakalari, beriladigan uy ishlari mikdori, mavzular bo'yicha utkaziladigan test savollari, reyting nazorati boskichlari, etalon darajasida uzlashtirish usuli oldin-dan belgilab kuyiladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiya ta'lim maqsadini aniq o'rnatishdan boshlab, to uning natijalarini baholashgacha bo'lgan bosqichlarning har biri uchun ijodiy faoliyatni talab etadi. O'qituvchi mashg'ulotlarni pedagogik texnologiya bo'yicha loyihalashda quyidagilarga amal qilishi muhim hisoblanadi: o'quv mashg'uloti boshida ta'lim oluvchilarda utiladigan mavzuni urganishga nisbatan qiziqish uyg'otish; mashg'ulot o'quv maksadlarini ularga e'lon kilish, zarur bulsa, ularga uzgartirishlar kiritish; mashg'ulotni o'quv faoliyatini tashkil etish shakllari bilan almashtirib turish; ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda ukish va yozish orkali tankidiy fikrni rivojlantirish xamda mavzu uchun tanlab olingan interfaol usullardan foydalanish va boshkalar.

Mavzuni loyihalashda, uning nomining mazmuni, unga ajratilgan soat, o'qituvchi va ta'lim oluvchi maqsadlari, turli shakldagi topshiriklar, tayanch tushunchalar, o'qituvchining ta'lim oluvchi o'quv faoliyatini boshkarishining uslubi va shakli, o'qitishning grafik va texnik vositalari, tashxislash usullari kabilar ko'rsatiladi.

Pedagogik tajriba tarbiyachilar tomonidan amaliy ish jarayonida egallangan bilim, malaka, ko'nikmalar asosida aniqlanib, pedagogik mahorat, pedagogika fani taraqqiyotining asosiy manbaalaridan biri sifatida talqin qilinadi. Bolalar ta'lim-tarbiyasida yangi imkoniyatlar ochadigan, ta'lim-tarbiyaviy ishni shakllantirishda yangi shakl, uslub va usullardan foydalangan holda ijodiy natijaga erishadigan tajribani ilg'or ish tajribasi deb atash mumkin. Pedagogikaga oid adabiyotlarda 40 ga yaqin «Ilg'or pedagogik tajriba» tushunchalari mavjud. Bu tushunchalarning hammasi pedagogik jarayonni maqsadga yo'naltiruvchi, yuqori ko'rsatgichlarga erishishga ta'sir ko'rsatuvchi bir vosita sifatida talqin qilinadi. Ilg'or pedagogik tajribaga uch xil asosiy yondoshuv mavjud.

Ular:

-Namuna sifatida boshqa pedagoglar ishlariga nisbatan yaxshi natija ko'rsatuvchi pedagogning o'z ish tajribalariga yondoshish;

-Ilmiy tekshirish va tajriba –sinov ishlarini hayotga tadbiq eta oladigan, yaxshi natijalarga erishadigan faoliyatlariga yondoshish;

-Yangi, noyob bilimlar yaratuvchi ijodiy izlanuvchi ijodkor pedagoglarga yondoshish. Ilg'or ish tajribalarni izlash, o'rganish, umumlashtirish, amaliyotga tadbiq etish va ommalashtirish – bularning hammasi katta tarbiyachi yoki mudiraning asosiy ish jarayonlari bosqichlaridir. Bu bosqichlar quyidagilardir:

Birinchi bosqich. Bu bosqichda pedagogik jarayon kuzatiladi. Kuzatish davrida tarbiyachilarining ilg'or ish tajribalari, alohida pedagoglarning yaxshi ishlari aniqlanadi.

Ikkinci bosqich. Bu bosqichda to'plangan tajribalarni umumlashtirish lozim. Katta tarbiyachi pedagogga bor dalillarni tahlil qilishga, ikkinchi darajali narsalardan asosiysini tanlashga yordam beradi. Bunda tajribaning nazariy asoslanishi katta ahamiyatga ega. Mantiqiy usullardan to'g'ri foydalana bilish to'g'ri natija chiqarishga yordam beradi.

Uchinchi bosqich. Bu bosqichda ilg'or ish tajribalarini amaliyotga tadbiq etish va ommalashtirishdir. Birgina maktabgacha ta'lim muassasasi o'z tarbiyachilarining ilg'or ish tajribalarini izlashi, topishi, o'rganishi, umumlashtirishi va ommalashtirishi yoki boshqa tarbiyachilarining ilg'or ish tajribalarini shu muassasa hayotiga tadbiq etishi mumkin.

Amaliyotda qo'llash uchun tanlangan ilg'or ish tajribalari tanlashda quyidagi mezonlarga ahamiyat berish lozim.

- Uning dolzarbligi;
- Dasturamalliligi;
- Qo'llash uchun shart-sharoitning yaratilganligi;
- Tajribaning yaxshi natijaga olib kelishi;
- Erishilgan natijaning turg'unliligi.

Ta'lim mazmuni va uning tarkibini kengaytirish, chuqurlashtirish, bu mazmunga nafaqat bilim, ko'nikma, malaka, balki umumisoniy madaniyatni tashkil etuvchi ijodiy faoliyat tajribasi, tevarak - atrofga munosabatlarni ham kiritish g'oyasi juda muhimdir. Ilg'or pedagogik, ijtimoiy tajribalar pedagogik mahoratni shakllantirishda muhim omildir. Yangi pedagogik texnologiyalarning asosiy tomoni maktab darsliklarini qaytadan yuksak darajada, yuqori saviyada tuzish lozimlidir.

Darsliklar tuzish ko'p yillik ilmiy, madaniy, estetik, ma'naviy tajribalarga tayangan holda amalgalashirilmog'i kerak. Ta'lim jarayonidagi pedagogik faoliyat o'z mehnatiga ko'ra ijodiy xarakterga ega. Ma'lumki, inson oldida biror muammo turgandagina ijodkorlikka ehtiyoj tug'iladi. O'qituvchilik faoliyati ana shunday xususiyatga ega.

Pedagogik ijodkorlikning asosiy mohiyati pedagogik faoliyatning maqsadi va xarakteri bilan aniqliq. Pedagogik faoliyat kishi shaxsi, uning dunyoqarashi, e'tiqodi, ongi, hulqatvoriga bo'ysungan son-sanoqsiz pedagogik masalalarini yechish jarayonidir. O'qituvchi faoliyatidagi ijodkorlik ana shu masalalarni yechish usullarida, ularni hal qila olish yo'llarini qidirib topa bilishida ifodalananadi.

Pedagogik ijodkorlik manbai - bu ilg'or pedagogik tajribadir. Ilg'or pedagogic tajriba muammoli vaziyatlarga juda boydir. Ilg'or pedagogik tajriba deganda, biz o'qituvchining o'z pedagogik vazifasiga ijodiy yondoshishi, o'quvchilarning ta'limtarbiyasida yangi, zamonaviy, samarali, eng ma'qul yo'l va vositalarni qidirib topishini tushunamiz. Ilg'or pedagogik tajriba o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan ish shakli va usullari, uslub va vositalar hamda innovatsion texnologiyalardir. Ilg'or pedagogic tajriba o'rganish, unga asoslanib yangi pedagogik hodisa va qonuniyatlarni ochish, o'quv-tarbiya jarayoniga yaxshi, sifatli o'zgarishlar kiritish, o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish, yangi ko'rinishdagi o'quv jarayonini modellashtirish muammolarini yechishga sabab bo'ladi. Ijodiy ishlaydigan o'qituvchi faqatgina muvaffaqiyatlari o'qitish va tarbiyalash; ilg'or o'qituvchilar ish tajribalarini tahlil qila olish tadqiqotchilik ko'nikma va malakalariga ham ega bo'lishi zarur.

Ilg'or o'qituvchi hamma vaqt pedagogika sohasidagi yangiliklarni bilishga intiladi, boshqa

o‘qituvchilarning tajribalaridan foydalanishga hamda o‘z shaxsiy tajribalarini umumlashtirishga harakat qiladi. Hozirgi zamон fan va texnika taraqqiyoti o‘qituvchining ijodkor bo‘lishi, o‘z fanining muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita olishi, fan yutuqlarini o‘quvchilarga yetkaza olishi, va nihoyat, o‘quvchilarni ham ijodiy fikrlashga, tadqiqot ishlariiga o‘rgata olishini talab qiladi. Shuning uchun o‘qituvchi, avvalo, tadqiqotchilik malakalarini egallashi zarur. O‘qitvchi ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishi davomida olimlarning tajribalarini to‘playdi, tahlil qiladi, ular asosida xulosalar chiaradi.

U fan xulosalaridan o‘zining amaliy faoliyatida foydalanish jarayonida hozirgi zamон o‘qituvchisi uchun zarur bo‘lgan juda muhim fazilatlarni egallaydi. Ilg‘or o‘qituvchilar o‘qitish metodlarini tanlashga alohida e’tibor beradilar.

O‘quvchilarning frontal, differensiyalashgan va yakka tartibdagi faoliyatlarining umumiyligi jihatlari ko‘proq bo‘lsa-da, ularni tashkil etish o‘qituvchidan o‘ziga xos ijodiy yondoshishni talab qiladi. Agar butun sinf, guruh va alohida shaxsga nisbatan bir xil metod bilan ta’sir ko‘rsatilar ekan, unda tarbiya ham, ijodiy yondoshish ham barbod bo‘ladi. O‘qituvchi pedagogik mahoratini shakllantirishda ilg‘or pedagogik tajribalarga tayanishi yaxshi natijalarga olib keladi.

Tasviriy san’at mashg‘ulotlarining eng muhim vazifalaridan biri - amaliy bezak va me’morchilik san’atlari asarlarini o‘qishga o‘rgatishdir. Tasviriy san’at asarlari ertak, hikoya, doston kabi ma’lum bir mazmunni aks etiradi. Tasviriy san’at asarlarining o‘ziga xos tili bor. Xususan, rassomlar chiziqlar, ranglar, o‘lchovlar, kompozitsiya, proporsiya, ritm, simmetriya shakl kabi ifodalilik vositalari yordamida asar mazmunini ochib beradilar.

Tasviriy san’at fani mashg‘uloti bevosita o‘quvchilarning estetik tarbiyasini tarkib toptirishda ahamiyatli bo‘libgina qolmay, balki axloqiy tarbiyada ham salmoqli o‘rinni egallaydi. Shuni e’tirof etish kerakki, tasviriy san’at o‘quv fani mashg‘ulotlari o‘quvchilarda malliy g‘urur va iftixon, milliy istiqlol mafkurasini shakllantirishda, vatanparvarlik va baynalminal tarbiyada, do’stlik va o‘zaro birodarlik yordam g‘oyalarni tarkib toptirishda katta kuchga egaligini bilan ahamiyatlidir.

XULOSA. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ta’limda ilg‘or pedagogik tajribalarni qo‘llash orqali ta’lim sifatini yanada takomillashtirish zarur. Bu orqali biz yoshlарimizning quyidagi xususiyatlarini rivojlantirgan bo‘lamiz: - bilim, ko‘nilma va malakalarini shakllantirish; - yoshlarni jahon arenalariga intilishlariga zamin yaratish hamda ularning yetuk kadr sifatidagi raqobatbardoshligini oshirish; 80 – ularda ijodkorlik hamda tanqidiy fikrlay olish qobiliyatlarini shakllantirish. Yana shuni aytish lozimki, bugungi kunda oldimizda turgan asosiy hamda buyuk vazifamiz har tomonlama yetuk, barkamol shaxsni tarbiyalab voyaga yetkizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Arziulov A.U. Interfaol usullar. -Samarqand, 2003.
3. Ilg‘or pedagogik texnologiya nima va uni qanday qilib o‘quv jarayonida qo‘llash mumkin. -Ma’rifat nuri gazetasi, 20 sentyabr 2007 yil.
4. Imomov X.X. Investitsiyani tashkil etish va moliyalashtirish fani bo‘yicha ta’lim texnologiyasi. -Toshkent: TDIU, 2006.
5. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. -Toshkent, 2006.
6. Yo‘ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. -Toshkent, 2005.
7. Karimjonov I.A. va boshq. Yangi pedagogik texnologiyalar. -Toshkent, 2002